



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



RIVOJLANGAN MAMLAKATLAR IQTISODIY TIZIMLARI

Solijonov Sarvarbek Qaxramonjonovich

Samarqand iqtisodiyot va Servis instituti Iqtisodiyot fakulteti

Ik - 924 guruh talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqola hozirgi davrning rivojlangan davlatlari iqtisodiy tizimlari , ularni shakillari va jamiyatlarning shu tizimlarda rivojlanishi haqida . Rivojlangan mamlakatlarning o'ziga xos xususiyatlari , ularning tanlagan iqtisodiy tizimlari hamda rivojlanish davomida yuzaga kelgan imkoniyat va xatarlar haqidagi ilmiy tahliliy xulosalarni o'z ichiga olgan maqoladir .*

Kalit so'zlar: *Iqtisodiyot , YaIM , Mulk , Aholi , Inflatsiya , qarz , Geografiya , Demografiya , Ijtimoiy soha , Sanoat , Xizmatlar sohasi , Bandlik , Ishsizlik , Pul-kredit , Moliya , Migratsiya , Konsepsiya .*

Kirish

Kishilik jamiyati tarixida , mamlakatlar shakillangan paytdan boshlab , ular o'zaro savdo - sotiq ishlarini amalga oshirish jarayonida , mamlakatning iqtisodiy siyosati hamda iqtisodiyoti kabi tushunchalar kirib kela boshladi . Mamlakatlarning joylashgan o'rni hamda aholisining ijtimoiy holatidan kelib chiqqan holda ular o'zlariga maqbul iqtisodiy tizimni tanlaganlar . Hozirgi rivojlanish zamonida iqtisodiy tizimlar nafaqat mamlakat qudratini balki o'sha mamlakat aholisining ijtimoiy holatini , mamlakat kamchiliklari yokida yutuqlarini hamda o'z imkoniyatlarini to'g'ri talqin etish uchun va kelgusidagi harakat , rejalarini ishlab chiqish uchun muhimdir . Zamonaviy davrda , o'tmish davrdagi sanoat inqiloblari singari iqtisodiy tizim faqat rivojlanish konsepsiyasi emas , bu mamlakatning qudratini belgilovchi asosiy vositahamdir. Jamiyat , millat rivojlanishi , taraqqiyoti uchun muhim vosita bo'lgan ushbu tizimlar tarixda xalqlarning taqdirini o'zgartirib yuborgan . Birinchi sanoat inqilobi davrida , sanoatlashgan mamlakatlarning tez sur'atlar bilan aholi turmush tarzini o'zgartirganiga guvoh bo'lganmiz. 1760 va 1860 yillar oralig'ida texnologik taraqqiyot, [TA'LIM](#) va ortib borayotgan kapital zaxiralari Angliyani dunyo ustaxonasiga aylantirdi. Sanoat inqilobi, transformatsiya nomi bilan mashhur bo'lib, Angliyada va uning oqibatlari G'arb dunyosining qolgan qismiga tarqalishi bilan bir kishiga to'g'ri keladigan real daromadning barqaror o'sishiga olib keldi. Tarixchilar sanoat inqilobi tarixdagi eng muhim voqealardan biri bo'lganligi va zamonaviy davrga tez o'tishni belgilaganiga qo'shiladilar, ammo ular voqeaning ko'p jihatlari bo'yicha keskin kelishmovchiliklarga ega. Barcha kelishmovchiliklar orasida eng qadimgisi sanoat inqilobining oddiy odamlarga, ko'pincha ishchi sinflarga qanday ta'sir qilgani bilan bog'liq. Bir guruh, pessimistlar, oddiy odamlarning turmush darajasi pasayganini ta'kidlaydilar, boshqa guruh, optimistlar, turmush darajasi oshganiga ishonishadi.^[1]

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



Mamlakatlarning tarixiga qaraydigan bo‘lsak , ilk sanoat inqiloblari , iqtisodiyotga ko‘p jihatdan mazmun kiritgan va uni ahamiyatini oshirgan . Ilk sanoat inqilobi dastlab Angliyada boshlanib , so‘ngra boshqa yevropa mamlakatlarida tarqalgan shu bilan bir qatorda boshqa mintaqalarga ham . Ingliz ixtirochilarining yaratgan texnika , dastgohlari ommalashishi jamiyatning turmush tarzini hamda iqtisodiy rivojlanishni o‘zgartirib yubordi . Ilm - fan texnik tomondan rivojlanishi , mexanik avtomatlashtirilgan zavod va fabrikalar paydo bo‘lishi birinchi sanoat inqilobini boshlab berdi ^[2] . Bu esa bizga iqtisodiy rivojlanish texnologik yuksalish tufayli bo‘lishi haqidagi ilmiy farazni berdi .

Keyingi sanoat inqiloblari ham texnologik yuksalish , iqtisodiy yuksalishni birmuncha asoslovchi omillardan biri ekanligini isbotladi . Mamlakatlarning ko‘pchiligi , o‘tgan asrda o‘zining iqtisodiy tizimini mafkuraviy g‘oya bilan o‘zaro bog‘lagan holda rivojlanish konsepsiyalarini sinab ko‘rdilar . Xususan feodal jamiyatdan , industrial jamiyatga o‘tish paytida , turli siyosiy g‘oyalar yuzaga kela boshladi . Sotsializm g‘oyasi , jamiyatni feodallar zulmidan qutqarish bahonasida , iqtisodiyotning yangi tarmog‘i Sotsial iqtisodni yuzaga keltirdi . Bu iqtisodiy tizim , mamlakatda barcha mulkchilik shakillarini davlat tasarrufiga o‘tkazish va rejali ishlab chiqarishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan edi ^[3] . Sotsialistik iqtisodiy tizimni asosan XX asr boshlaridagi Rossiya imperiyasining barcha hududlari qo‘lladi . ^[4] Keyinchalik bu tizimni boshqa sotsialistik tuzumdagi davlatlar ham qo‘llay boshladi .

G‘arbiy yevropada , Rossiyaga nisbatan teskari yo‘nalishdagi iqtisodiy tizim shakillangan edi . Kapitalizm ishlab chiqarish usuli sanoat inqiloblari natijasida yuzaga kelgan iqtisodiy tizim bo‘lib , u xususiy mulk va ishlab chiqarishni qo‘llab quvvatlashga asoslangan tizimdir . Bu tizim turli g‘oyalar shakillangan davlatlarda ham shakillanishi mumkin , biroq Sotsialistik mamlakatlarda emas . Demokratiya , Respublika yoki liberal g‘oyalar asosida shakillangan mamlakatlarda ham Kapitalistik iqtisodiy tizim bo‘lishi mumkin . ^[5]

Jamiyatning turmush darajasi hamda siyosiy g‘oyalar rivojlanishi asnosida iqtisodiy tizimlar shakillari ham o‘zgarib bordi . XX - XXI asrlar davomida insoniyat hayotidagi o‘zgarishlar sabab , yangi iqtisodiy - ijtimoiy hamda texnologik yutuqlarga erishildi .

Iqtisodiy tizimlar o‘zgarishi asosida , turli iqtisodiy modellar ham yaratildi . Aralash iqtisodiyot - bu hozirgi zamon bozor iqtisodiyoti modellaridan biri. Aralash iqtisodiyot bozor iqtisodiyotining ri-vojlangan va demokratlashib, insoniy tus olgan turi bo‘lib, AQSH, Angliya va Fransiya kabi rivojlangan mamlakatlarga xos. Aralash iqtisodiyot poli - iqtisodiy tizim bo‘lib, ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyoti, kooperativ iqtisodiyot kabi modellardan o‘zining 3 jihati bilan ajralib turadi:

a) mulkiy xilma-xillik. Iqtisodiyotda yagona mulk monopoliyasiga urin qolmaydi, xilma-xil mulkchilik yonma-yon rivojlanadi. Mulchilikning 3 shakli mavjud bo‘lib, bular

- xususiy mulk,
- jamoa mulki
- davlat mulkidan iborat buladi.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



Xususiy mulkning individual (yakka) mulk shakli emas, balki kooperativ (shirkat) shakli ustuvorlik qiladi. Jamoa mulki esa ishchi va xizmatchilarning o‘ziga yoki ularning kasaba uyushmasiga qarashli mulkdan tashkil topadi va xalq korxonalarida o‘z ifodasini topadi.^[6] Ushbu maqolada esa iqtisodiy tizimlarning qay biri, yokida qaysi modeli mamlakatlar rivoji uchun yaxshiroq xizmat qilishini ko‘ri chiqamiz.

Tadqiqot metodologiyasi


Ushbu maqolaning tadqiqot metodologiyasida, yuqoridagi ma’lumotlar va manbaalardan foydalangan holda qiyosiy hamda real hodisalar tahlili metodlaridan hamda siyosiy, tarixiy ma’lumotlarni nazariy o‘rgangan holda qiyosiy statistik kuzatuv metodlaridan foydalanilgan. Shu o‘rinda, maqolaning ilmiy ahamiyati qo‘shimcha nazariy bilimlar va amaliy tajribalarga asos bo‘la oladi.

Tahlil va natijalar

Maqoladagi yondashuvlar va ma’lumotlarning asosida qilingan tadqiqotlarda, iqtisodiy tizimlar o‘zaro bog‘liqligi hamda rivojlanish jarayonida turli qiyinchiliklar va kamchiliklar kuzatilgan.

Xususan kapitalistik iqtisodiy tizimning vujudga kelishida, feodal jamiyat vakillarining^[7] obro‘sigacha putur yetkazdi. Kapitalizmning rivojlanishi yevropaning yirik davlatlari yuksalishiga asos bo‘ldi. Yevropaning sanoat inqiloblari sabab shakillangan demokratik va liberal siyosiy qarashlari, boshqa mamlakatlarda o‘z g‘oyalarini yaratishga turtki berdi.

Shu o‘rinda, ikki iqtisodiy g‘oya, demokratik qadriyatlar asosida vujudga kelgan kapitalizm va ijtimoiy tengsizlikka qarshi bo‘lgan sotsial iqtisodiy tizimlarni tahlilini bayon etamiz. Ularni o‘zaro solishtirish, ularni yutuq va kamchiliklarini tushuntirish uchun asosiy raqobat davri XX asr tarixiga yuzlanamiz.






TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



(1 - rasm SSSR va AQSH ning iqtisodiy ko'rsatkichlari [8],[9],[10],[11],[12],[13],[14].)

XX - asrning yirik davlatlari iqtisodiy ko'rsatkichlari turli sabablarga ko'ra turlicha bo'lgan . Ammo asosiy tafovut asrning oxiriga kelib , o'zini namoyon etdi. Bu tafovut mamlakatlar geografiyasi bilan hamda siyosiy qarorlar bilan bog'liq bo'lib , iqtisodiy tizimlarning samaradorligini yaqqol ko'rsatib berdi . Xususan mamlakatlarning mulkga bo'lgan qarashlari va huquqiy jihatlari ular o'rtasidagi YaIM dagi farqlarni kattalshishiga ta'sir etmoqda .

Amerika iqtisodiyoti , asrning boshi va o'rtalarigacha , Sovet iqtisodiy qudrati bilan bellashib kelgan . Ammo sanoatning yangi davri , axborot inqilobi davrida kapitalistik tizim ustun kela boshladi .



(2 - rasm G'arbiy yevropa mamlakatlarining iqtisodiy ko'rsatkichlari .
[15] , [16],[17],[18] .)

G'arbiy yevropada XX - asrning o'zidayoq ikki jahon urushi bo'lganiga qaramay , iqtisodiy rivojlanishning kapitalizm tizimi o'z so'zini aytdi . Xususan asrning 40 - 45 yillaridagi iqtisodiy pasayish sikli , shu davrdagi urush natijasida yuzaga keldi .

Yevropaning urushdan keyingi tiklanish jarayoni o'z navbatida AQSHning "Marshal rejasi" asosida , ushbu mintaqaga asoslangan qayta tiklash rejasi orqali amalga oshirildi .[19]

Yevropa mamlakatlari hamda AQSH , yuqori sur'atlarda rivojlanib borar ekan , Sovet ittifoqi ham poygaga kirishdi . Ammo Sotsialistik iqtisodiy tizimning kamchiliklari ko'p edi . 1975 - 80 yillarga kelib Sovet davlatida iqtisodiy pasayish kuzatildi .[20]

1990 - yildan boshlab , Sovet ittifoqidagi o'zgarishlar jiddiylashib bordi va oxir oqibat mamlakatning parchalanishiga ham olib keldi . Mamlakatning rejali iqtisodi hamda milliy



TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



monopoliyasi ortidan yuzaga kelgan muammolar , o'z ta'sirini ko'rsatdi . Ammo 1925 - 35 yillar oralig'ida , Amerikada yuzaga kelgan iqtisodiy inqirozlarda , kapitalizm sharoitida sanoat monopolizmi rivojlanishi kuzatildi .[21] . Hukumat barcha zarur choralarni ko'rdi va monopolizmga qarshi islohotlar boshladi [22] . Ushbu asosda kapitalistik bozor tizimiga , davlatning minimal aralashuvi orqali , yangi tizim " Aralash bozor iqtisodiyoti tizim" ga yo'l ochdi . .

Jahon XXI - asrga kelib , iqtisodiyotning keng tarqalgan tizimi , " Aralash bozor iqtisodiyotiga moslashdi . Barcha mamlakatlar o'zlarining bozor iqtisodiyoti tizimlarini isloh qildilar va mamlakat hamda jahon miqiyosida muvozanatni ta'minlashga kirishdilar .

Xulosalar va takliflar

Yuqoridagi barcha tahlillar va kuzatuvlar natijasida , iqtisodiy tizimlarning imkoniyatini va natijalarini ko'rib chiqdik . Hozirgi sharoitda barcha mamlakatlar xususan sotsialistik deb ta'riflanadigan xitoy ham o'z mamlakatida aralash bozor iqtisodiyotini ta'sis etgan . Bu , bizga nimani anglatadi desangiz . Insoniyat tarixi davomida , uning rivoji uchun ham erkin bozor ham davlatning bozorga aralashuvi zarurligini anglatadi .

Hozirda ham ko'plab davlatlar ushbu tizimdan foydalanib kelmoqda va o'z taraqqiyot yo'lida yangi imkoniyatlarga erishmoqdalar . Taklifimiz , iqtisodiy tizimni davlat sherikchiligi bilan birga yurgizayotgan xalq , endilikda milliy qadriyatlar hamda yo'nalishlarga urg'u berishidir . Zero insoniyat taraqqiyoti iqtisodiy moddiyat va ma'naviy o'zlik orqali tezlashadi .

Foydalanilgan adabiyotlar

1. <https://www.econlib.org/library/Enc/IndustrialRevolutionandtheStandardofLiving.html> [1]
2. Ekonomicheskaya istoriya, M., 1967; Chet el kapitalistik mamlakatlarining iqtisodiy tarixi, T., 1976.
3. Abduxalil Razzoqov, Erlis Aliqulov.[2]
4. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Sotsializm> [3]
5. <https://uz.wikipedia.org/wiki/NEP> [4]
6. https://uz.wikipedia.org/wiki/Kapitalistik_ishlab_chiqarish_usuli [5]
7. https://uz.wikipedia.org/wiki/Aralash_iqtisodiyot [6]
8. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Feodalizm> [7]
9. <https://www.rug.nl/ggdc/historicaldevelopment/maddison/releases/maddison-project-database-2020>[8]
10. <https://www.cia.gov/readingroom/search/site/Soviet%20GDP>[9]
11. Robert Allen: "Farm to Factory: A Reinterpretation of the Soviet Industrial Revolution" (Princeton University Press). Bu kitobda 1928–1940-yillardagi o'sish raqamlari tahlil qilingan.





12. Grigoriy Khanin: "Soviet Economic Growth: From Expansion to Stagnation". Xanin rasmiy sovet statistikasidagi xatolarni fosh qilgan birinchi sovet iqtisodchisi hisoblanadi.[10]
13. [https://www.gapminder.org/tools/#\\$chart-type=bubbles&url=v2](https://www.gapminder.org/tools/#$chart-type=bubbles&url=v2)[11]
14. <https://www.bea.gov/itable/>[12]
15. <https://fred.stlouisfed.org/series/GDPC1>[13]
16. <https://www.measuringworth.com/datasets/usgdp/>[14]
17. <https://www.rug.nl/ggdc/historicaldevelopment/maddison/releases/maddison-project-database-2020>[15].[8]
18. https://www.oecd-ilibrary.org/economics/data/oecd-national-accounts-statistics_na-data-en[16]
19. <https://data.worldbank.org/indicator/NY.GDP.MKTP.PP.KD>[17]
20. <https://www.imf.org/en/Publications/WEO/weo-database/2023/October>[18]
21. <https://www.archives.gov/milestone-documents/marshall-plan>[19]
22. <https://nintil.com/the-soviet-union-gdp-growth/>[20]
23. Federal Reserve History: The Great Depression (1929–1933)[21]
24. Digital History: The Great Depression and the New Deal[22]

